

ARAB TILINI O'RGANISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Inomjonova Sarvinoz Bahodir qizi

*O'zDJTU, Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi
inomjonovasarvinoz2004@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'rganish jumladan, Arab tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, turli xil yoshdagi arab tili o'rganuvchilari uchun maslahatlar, undagi muammolar va ularga yechimlar hamda yurtimizda arab tilini o'rgatishga qaratilgan e'tibor haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Arab tili, metod-texnika, o'rganish, qonun-qoida, maxraj.

Аннотация: В этой статье, в то время, когда существует высокая потребность в изучении арабского языка, включая изучение иностранных языков, даны советы, проблемы и решения для изучающих арабский язык разных возрастов, а также преподавание арабского языка в нашей стране. дана информация о внимании.

Ключевые слова: арабский язык, методика, обучение, правила, знаменатель.

Annotation: In this article, in a time when there is a high need to learn Arabic, including learning foreign languages, advice, problems and solutions for Arabic language learners of different ages, and teaching Arabic in our country. information about attention is given.

Key words: Arabic language, methodology, learning, rules, denominator.

Kirish

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Yurtimizda ingliz, rus tillari rivojlangan tillar hisoblansa hozirga kelib arab tili ham ularning safiga qo'shilmoqda. Ma'lumki arab tilini o'rganish-o'rgatish muayyan jihatlari bilan ona tilidan farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi.

Kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatadiki, kundan-kunga arab tiliga bo'lgan ehtiyoj hamda kishilarda unga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Yurtimizda arab tiliga yo'nalishi bo'yicha kvotalarning ko'paygani ham buning dalilidir. Har bir tilning o'z qonun-qoidalari, o'rganish metod-texnikalari bor, jumladan arab tilida ham o'ziga yarasha qonun-qoidalar mavjud. Ma'lumot uchun: Arab tili dunyo tillaridagi so'zlarning soni bo'yicha 1-o'rinda turadigan til hisoblanadi va 12,302,912 ta so'z mavjud. Ushbu tilda so'zlashuvchilarning soni 267 nafar va bu tilda 58 ta davlat muloqot qiladi. So'zlashuvchilarning eng ko'p soni Saudiya Arabistoni, Iroq, Quvayt, Misr, Suriya va Liviyada joylashgan. Qur'oni Karimning



arab tilida yozilishi ham bu tilning tarqalishi uchun zamin yaratgan. Bu til Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tillari sirasiga kiradi.

Yurtimizda bir necha yillardan buyon arab tili o'rganilib kelinmoqda. Arabcha-o'zbekcha, o'zbekcha-arabcha tarjimalari bilan tanilgan ko'plab sharqshunos olimlarimiz mavjud. Ulardan Shoislom Shomuhamedov, Azizxon Qayumov, Alibek Rustamov kabilarni aytishimiz mumkin.

Har bir tilni o'rganishda qiyinchiliklar bo'lgani kabi arab tilini o'rganishda ham turli xil mashaqqatlarga duch kelish mumkin. Bu muammolarni hal qilish uchun bir necha metodlar mavjud:

1. Avvalo bu tilni o'rganishni boshlagan kishi harflarni maxrajlarini to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishi lozim. Ya'ni maxraj bu harflarni chiqish joyi hisoblanadi. Ko'pchilik bunga qiynaladi. Chunki arab tilidagi aksar harflar o'zbek tilidagidan farq qiladi. Birgina harfni noto'g'ri talaffuz qilish orqali so'zlarning ma'nolari o'zgarib ketishi mumkin. Masalan:

1. طَيْن (loy)

2. تَيْن (anjir)

O'zbek tilida bitta "T" harfi borligi uchun so'zlar bir xil o'qiladi. Ammo arab tilida bu so'zlardagi "T" harfini bir xil talaffuz qilish xato hisoblanadi.

2. O'zbek tilidagi harflardan farqli-farqsizligini ajratish.

3. Arab tilini yangi boshlaganlar bir xil, ammo talaffuzi boshqa harflarni yod olishga, to'g'ri talaffuz qilishga qiynalsalar, ular qatnashgan so'zlarni daftarga yozib qayta-qayta talaffuz qilishlari yordam beradi.

4. Arab tilida yaxshi muloqot qila oladigan, lekin harflarni to'g'ri talaffuz qila olmaydigan, arabcha matnlarni tushunlar-u tushunmasalar qayta-qayta o'qishlari; ط-ظ-ز-ذ-ث, ص-س-ت, -ط shunga o'xshash harflarni bir-biriga taqqoslab, ko'p ko'p talaffuz qilish orqali u muammolarni bartaraf qilishlari mumkin.

5. Arab tilini o'rganishda duch keladigan muammolardan yana biri jins kategoriyasidir. O'zbek tilida bu qoida yo'qligi sababli talabalarga bu qiyindek tuyiladi. Buni bartaraf qilish uchun hozirda ko'plab yosh-u qarilar rus tilini bilishadi, shuning uchun: 1. rus tiliga qiyoslab o'rganish 2. gaplar tuzish orqali o'rgansa oson bo'ladi.

Ikkinchi usul yozma mahoratni oshirish bilan birga nutqqa ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Avvalo o'rganuvchi o'ylaydi so'ng yozadi. Bu usulni bir necha muddat takrorlagandan keyin gapirganda so'zlar miyada tezlikda hosil bo'ladi va bu gapirish mahoratini oshiradi. Shahnoza Turg'unovna Xalilova aytganlaridek – "So'zlashuvning sof, aniq va tushunarli bo'lishi har bir kishining madaniyatli ekanligidan dalolat beradi".

6. Arabcha multfilm, kino ko'rish, qo'shiqlar eshitish orqali. Bu usul arab tilini yaxshi tushunishga, arab tili muhitiga kirib borishga katta yordam beradi. Bu usullar bilan muntazam shug'ullanish nafaqat to'g'ri talaffuzni balki o'rganuvchilarni tezda muloqotga kirishishini ta'minlaydi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kishilarning til bilish darajasi ularning talaffuz va gapira olish mahoratlari bilan belgilanadi. Shunday ekan, viloyatlarda ham arab tili o'rgatiladigan maktablarni ko'paytirib, bu tilni ham boshlang'ich sinfdan o'rgatilishini yo'lga qo'yish lozim. Arab tilini o'rganuvchilar esa kuniga 2, 3 soat vaqtlarini shu til uchun sarflab, yuqorida keltirilgan usullarni qo'llashsa samarali natijaga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamol Jalolov Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
2. t.m/@zamonaviymedia
3. @zarnews.uz
4. Shahnoza Turg'unovna Halilova Jahon tillarini o'rganish jarayonida talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish. – Toshkent, 2007.